

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Г.Х.Собирова	
Флавоноиды и их антидиабетические эффекты: клеточные механизмы	542
M.A.Toshtemirova	
Bakteriya hujayrasi qo'shilmalari va kapsulalari	546
M.A.Toshtemirova	
O'simliklardan tabiiy dori preparatlar olish	549
M.A.Toshtemirova	
Tayoqchasimon va sharsimon bakteriyalar va spiroxetalar, ularning morfologiyasi	552
F.R.To'xtasinov	
Bodring ekini nematodalarining mavsumiy dinamikasi (Oltiariq tumani misolida)	556
F.R.To'xtasinov	
Pomidor rivojlanish davrlarida fitonematodalarning turlar tarkibi va miqdor dinamikasi.....	562
F.R.To'xtasinov	
Kartoshka o'simligida uchrovchi fitonematodalarning turlar xilma-xilligi va ekologik-trofik guruxlari	566
Sh.Q.Yuldasheva, D.X.Mo'ydinova	
Ninachilarni tabiatda tarqalishi va unga ta'sir etuvchi omillar	570
Sh.Q.Yuldasheva, M.I.Teshaboyeva	
Farg'ona vodiysi nok bog'lari hosildorligiga nok shirinchasining ta'siri	573
Sh.Q.Yuldasheva, S.Nosirova	
Anjirning asosiy zararkunandalarini tur tarkibi va ularga qarshi uyg'unlashgan kurashish tizimining afzalliklari	577
Sh.Q.Yuldasheva	
<i>Panaphis juglandis</i> shirasining morfologik belgilari variatsiya ko'rsakichlarini o'ziga xosligi.....	581
A.A.Yoqubov	
Kuzgi tunlam (<i>Agrotis segetum</i> (Denis & Schiffermüller) 1775) lichinkalari rivojlanishiga tuproq namligining ta'siri	586
K.X.G'aniyev	
<i>Aphis pomi</i> va <i>Aphis punicae</i> shiralarning biologik xususiyatlari (Sirdaryo viloyati misolida).....	590
O.I.Qayumova	
<i>Hyles euphorbiae</i> (Linnaeus, 1758) ning (Lepidoptera, Sphingidae) morfologik tavsifi	594
O.I.Qayumova	
Janubiy Farg'onaning Sphingidae oilasi kapalaklari ozuqa ixtisosligi.....	599
T.E.Xomidova	
Ko'krak saratonining biologik markerlari.....	604
T.E.Xomidova, S.Isroiljonov	
Ko'krak bezi saraton oldi holatlarining skrining muammolari (Farg'ona viloyati misolida).....	608
A.M.Turgunova, Ch.Sh.Abduraxhorova, B.M.Sheraliyev	
Katta Farg'ona kanali va chodaksoyda tarqalgan Kushakevich yalangbalig'ning morfologik xususiyatlari.....	612
D.B.Fayziyeva, S.K.Allayarov	
Amudaryo havzasi endemigi <i>Oxyaemacheilus oxianus</i> (Kessler, 1877) (Teleostei: Nemacheilidae) ning morfologik tahlili.....	616
I.I.Zokirov, M.A.Axmadjonova	
Uzunburun qo'ng'izlar (Coleoptera: Curculionidae)ning tarqalishi va ozuqa spektriga oid yangi ma'lumotlar.....	621
G.M.Zokirova, M.Sh.Ro'ziboyev	
Farg'ona vodiysida qayd etilgan ko'l baqasi (<i>Pelophylax ridibundus</i>) va yashil qurbaqaning (<i>Bufo peszewi</i>) tur tavsifi	627
G.M.Zokirova, Z.A.Ibrohimova	
Koksinellid qo'ng'izlari (Coleoptera: Coccinellidae) vakillarining trofik munosabati	632
G.M.Zokirova, N.A.Xomidova	
Oltinko'z (Chrysopidae: Chrysoperla) entomofagini ko'paytirish biologiyasi.....	636
G.M.Zokirova, M.A.Masodiqova, I.B.Hoshimova	
Erebidae (Insecta: Lepidoptera) oilasi faunasiga doir yangi ma'lumotlar	640
G.M.Zokirova, A.Q.Saidjamolov	
Markaziy Farg'ona hududining ayrim shiralarga (Hemiptera: Aphididae) doir ma'lumotlar	643



UO'K: 618.17:612.616.31

**KO'KRAK BEZI SARATON OLDI HOLATLARINING SKRINING MUAMMOLARI
(Farg'ona viloyati misolida)****ПРОБЛЕМЫ СКРИНИНГА ПРЕДРАКА МОЛОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ (На примере
Ферганской области)****PROBLEMS OF BREAST PRE-CANCER SCREENING (Using the example of Fergana
region)****Xomidova Tursunoy Ergashboy qizi¹** ¹Farg'ona davlat universiteti Odam va hayvonlar fiziologiyasi ixtisosligi mustqail izlanuvchisi**Isroiljonov Saminjon²** ²Farg'ona davlat universiteti Zoologiya va umumiy biologiya kafedrasida b.f.n.dotsent**Annotatsiya**

“Mamlakatimizda aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordamning samaradorligi, sifati va ommabopligini oshirish, shuningdek, tibbiy standartlashtirish tizimini shakllantirish, tashxis qo'yish va davolashning yuqori texnologik usullarni joriy qilish, patronaj xizmati va dispanserizatsiyaning samarali modellarini yaratish, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va kasalliklarni profilaktika qilish”[1]. Shu kabi muhim topshiriqlar belgilangan bo'lib, ayollarda sut bezi saratonini oldini olish, erta tashxislash, ayollarning ushbu kasallikka nisbatan bilimini oshirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda, ayollar salomatligini tekshirish va tahlil qilish orqali ayollarda uchrashi mumkin bo'lgan kasalliklarning oldini olish imkoni tug'iladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»,

2017-yil 4-apreldagi PQ-2866-son «2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasida onkologiya xizmatini yanada rivojlantirish va aholiga onkologik yordam ko'rsatishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»[1], gi qarorlariga tayangan holda, Farg'ona viloyati ayollarning sut bezi saratoni haqida bilim darajasini aniqlash, ko'krak saratoniga olib keluvchi omillar haqida tushunchaga ega bo'lish, o'z-o'zini tekshirish, shifokorga kech murojaat qilish sabablarini o'rganish va tahlil qilish.

Аннотация

«Повышение эффективности, качества и популярности медицинской помощи, оказываемой населению в нашей стране, а также формирование системы медицинской стандартизации, внедрение высокотехнологичных методов диагностики и лечения, создание эффективных моделей патронажного обслуживания и диспансеризации, поддержки здорового образа жизни. образ жизни и профилактика заболеваний» Определены такие важные задачи: можно будет предотвратить рак молочной железы у женщин, провести раннюю диагностику, повысить знания женщин об этом заболевании, а также предотвратить заболевания, с которыми можно столкнуться у женщин, используя современные технологии; проверка и анализ женского здоровья. УП №-4947 Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан»,

На основании решения от 4 апреля 2017 года № УП-2866 «О дальнейшем развитии онкологической службы в Республике Узбекистан в 2017-2021 годах и мерах по совершенствованию оказания онкологической помощи населению» знания о молочной железе рак у женщин Ферганской области определение уровня, понимание факторов, приводящих к раку молочной железы, самообследование, изучение и анализ причин позднего обращения к врачу.

Abstract

"Increasing the efficiency, quality and popularity of medical care provided to the population in our country, as well as forming a medical standardization system, introducing high-tech methods of diagnosis and treatment, creating effective models of patronage service and dispensation, supporting a healthy lifestyle and preventing diseases" Important tasks such as 1) have been defined, it will be possible to prevent breast cancer in women, early diagnosis, increase women's knowledge about this disease, and prevent diseases that can be encountered in women by using modern technologies, checking and analyzing women's health. No. PF-4947 of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 7, 2017 "On the Strategy of Actions for the further development of the Republic of Uzbekistan",

Based on the decisions of April 4, 2017 No. PQ-2866 "On further development of oncology services in the Republic of Uzbekistan in 2017-2021 and measures to improve the provision of oncological care to the population", knowledge about breast cancer in women of Fergana region determining the level, gaining an understanding of the factors that lead to breast cancer, self-examination, studying and analyzing the reasons for late referral to the doctor.

Kalit so'zlar: ko'krak bezi saratoni, onkologik kasalliklar, so'rovnomalar, menopauza, mastit.**Ключевые слова:** рак молочной железы, онкологические заболевания, анкета, менопауза, мастит.

KIRISH

Hozirgi kunda ko'krak bezi saratoni dunyo bo'ylab, ayollar orasida uchraydigan onkologik kasalliklardan eng keng tarqalganligi bilan hamda o'lim ko'rsatgichlari soni ko'pligi jihatdan birinchi o'rinda turadi. Shu bois bu kasallik butunjahon muammolaridan biri hisoblanadi. *International Agency for Research on Cancer* (IARC) ma'lumotlariga ko'ra, har 12 ayoldan 1 nafari hayoti davomida ko'krak bezi saratoni bilan kasallanadi va 71 ayoldan 1 nafari inson rivojlanishi indeksi juda yuqori bo'lgan mamlakatlarda vafot etadi. Aksincha, inson rivojlanishi indeksi past bo'lgan mamlakatlarda; 27 ayoldan faqat bittasi hayoti davomida ko'krak bezi saratoni bilan kasallangan bo'lsa, 48 ayoldan bittasi undan vafot etadi. IARC saraton kasalligining nazorat qilish bo'lim boshlig'i doktor Isabelle Soerjomataram fikriga ko'ra "darajasi past bo'lgan mamlakatlardagi ayollarda ko'krak bezi saratoni bilan kasallanish ehtimoli yuqori bo'lgan mamlakatlardagi ayollarga qaraganda 50% kamroq, biroq ular kech tashxis qo'yilganligi va sifatli davolanishdan yetarlicha foydalana olmagan uchun kasallikdan o'lish xavfi ancha yuqori" (GLOBOCAN-2022). Xalqaro saraton tadqiqotlari agentligining (IARC) yangilangan hisob-kitoblariga asoslanib, 2022 yilda ayollar orasida ko'krak saratoni bilan kasallanish holatlari 2288695 (24,1%) ni tashkil etgan, o'lim holatlari 664366 (15,6%) ni tashkil etgan. [2]. O'zbekiston Respublikasida 2022 yil da 5022ta (25,3%) kasallanish holatlari kuzatilgan. " (GLOBOCAN-2022). A.T. Xudoyqulov (2015) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar davomida sut bezi saratonidan habardorlikni aniqlash uchun Xorazm viloyati ayollari orasida so'rovnoma o'tkazilgan. Ayollar ijtimoiy-iqtisodiy statusi xar xil xavfli omillarning ta'sirini belgilab (reproduktivlik ovqatlanish tarzi va tibbiy xizmat ko'rsatish) xavli o'smalarning rivojlanishiga eng muhim omillardan hisoblanadi. Ishlamaydigan ayollarda SBS xavfi kamroq bo'lgan, bu balki ishlab chiqarishdagi zararlar va stressli vaziyatlar yo'qligi bilan bog'liqdir. [6]. (A.T. Xudoyqulov va boshq. 2015).

A.V. Rusin (2013) ma'lumotlariga ko'ra, shahar aholisi ayollari orasida ko'krak saratoni haqida ko'proq ma'lumot hamda sharoitga ega bo'lish imkoniyati qishloq aholisi ayollariga qaraganda 4 baravar yuqori ekanligi ta'kidlangan. [5]. I.R. Asqarov. (2022) ma'lumotlariga ko'ra ekologiya va irsiyat muhim rol o'ynashi aniqlangan. Qishloq ayollari shahar ayollariga nisbatan 30% kamroq kasallandi. [2]. (I.R. Asqarov. G.D. Olimjonova 2022). Farg'ona viloyati ayollarida ko'krak saratoni to'g'risidagi bilimlarni baholash jihatdan o'rganish natijalarimiz quyidagi maqolada aks etgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu maqolada Farg'ona viloyatidagi ayollarning bilim darajasi va ko'krak saratoniga bo'lgan munosabatini o'rganish natijalari keltirilgan. Farg'ona viloyatida yashovchi 25 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan 55 nafar ayol o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomaga asoslangan ko'krak bezi saratoni shikoyatlari va ko'krak saratoni haqida umumiy ma'lumotlar keltirilgan. Asosiy xususiyatlar: yoshi, yashash hududi, ta'lim darajasi, oilaviy ahvoli. shaxsiy ma'lumotlarning statistik tahlili hisoblash asnosida amalga oshirildi. So'rovnomaning aniqlashda A.V. Rusin (2013) hamda A.T. Xudoyqulov (2015) I.V. Visotskaya (2010) tomonidan tuzilgan ma'lumotlardan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Farg'ona viloyati ayollarida ko'krak bezi saratoni to'g'risida bilimlarni oshirish, kasallikning rivojlanishini oldini olish erta tashxislash ayollarda ko'krak saratoni to'g'risidagi noto'g'ri tushunchalarni oldini olishga qaratilgan. Mamlakatimizda tibbiyotning rivojlanishi, tibbiy uskunalar shu jumladan mammografik rentgen apparatining chekka hududlarga ha yetib borib ayollar samoatligini tahlil qilinishi ko'krak saratonini oldini olishda asosiy omillardan hisoblanadi.

Ayollarning ijtimoiy-demografik xususiyatlari

Ayollarning ijtimoiy-demografik xususiyatlari (n=55)	Soni	%
Yoshi		
35-yoshgacha	24	43.6%
36-45 yosh	12	21.8%
45 yoshdan yuqori	19	34.5%
Bo'y va vaznlarning nomutanosibligi(bo'y.sm-100=ideal vazn kg.da) Ideal vazndan oshib ketishi		
norma	9	16.3%
5 kg	14	25.4%
10kg	6	10.9%
15kg	5	9%
20kg	18	32.7%
30kg	30	16.3%
Birinchi hayz sikli boshlangan yosh		
11 yosh	4	7.3%
12 yosh	7	12.7%
13 yosh	10	18.1%
14 yosh	10	78.1%
15 yosh	11	20%
16 yosh	14	25.4%
Tabiiy menopauza sodir bo'lgan yosh		
40-45 yosh	15	27.2%
46-50 yosh	8	14.5%
51-56 yosh	6	10.9%
Sodir bo'lmagan	24	43.6%
56 yoshdan yuqori	2	3.6%
Birinchi xomilador bo'lgan yosh		
20 yoshgacha	6	11%
20-25 yoshgacha	34	61.8%
26 dan yuqori	10	18%
Xomilador bo'lmagan	5	9%
Birinchi tug'ruq bo'lgan yosh		
25 yoshgacha	26	47.2%
25-27 yoshgacha	18	32.7%
28 dan yuqori	6	11%
Tug'ruq bo'lmagan	5	9%
Abortlar soni		
Yo'q	23	41.8%
1-2	18	51%
3 dan ko'p	4	7.5%
Predinstrual sindrom borligi(pms,bosh og'rig'i,belda va ko'krak qismida og'riq,umumiy xolsizlik)		
Xa	38	69%
Yo'q	17	31%
Mastit		
Bo'lgan	22	40%
Bo'lmagan	33	60%
Mastitda kesma bo'lganmi		
Bo'lgan	17	31%
Bo'lmagan	38	69%
Ko'krak bezi jarohati (ko'krakka yiqilish, zarba)		
Bo'lgan	4	7.3%

BIOLOGIYA

Bo'lmagan	51	9.27%
Menopauza sababi		
Tabiiy	32	58.2%
Sun'iy (agar bachadon va tuxumdonlar olib tashlangan bo'lsa)	8	14.5%
Bo'lmagan	15	27.2%
O'zingizni tekshirganingizda noodatoy biror nima aniqlaganmisiz		
Yo'q	36	65.4%
Zichlanishlar aniqlandi	-	-
So'rg'ichda ajralmalar bor	4	7.3%
Doimiy og'riqlar	12	21.8%
Vrach-mammolog ko'rigida oxirgi marotaba qachon bo'lgansiz?		
6 oygacha	12	21.8%
1 yilgacha	15	27.2%
1 yildan ko'p	28	51%

XULOSA

Yuqoridagi olingan natijalardan xulosa qilish mumkinki, hozirgi kunda 35 yoshgacha bo'lgan ayollarda o'z o'zini tekshirish va ko'krak saratoni holatlari to'g'risida bilimlarga ega bo'lish, katta yoshdagi ayollarga nisbatan ko'proq uchramoqda. Hozirgi davrda ko'plab mamlakatlardagi kabi bizning hududimizda ham ortiqcha vazn muammosi ayollarni qiynab kelmoqda. Tabiiy menopauza bo'lgan yosh, birinchi homiladorlik va birinchi tug'ruq yoshlari ayollar o'rtasida normal holatda bo'lishiga qaramasdan ba'zi hollarda qizlarda erta turmush qurish holatlari ham uchramoqda bu esa qizlar organizmining tug'ruqqa tayyor emasligi natijasida abortlar sonining oshishiga, hamda mastit va bir qancha ginekologik kasalliklarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Ekologik muhit, noto'g'ri ovqatlanish ortiqcha vazn, noto'g'ri jinsiy hayot kabilar gormonal o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda va buning natijasida ayollarda hayz oldi holatlarida bosh og'rig'i, belda hamda ko'krak qismida og'riq, umumiy holatlari kuzatilmoqda. Ushbu holatlar kuzatilgan hollarda o'z-o'zini tekshirish ko'krak qismidagi doimiy og'riqlarga e'tibor bermaslik holatlari uchramoqda. So'rovnoma o'tkazish jarayonida ayollarda yuqoridagi kabi holatlar ko'p uchrashining asosiy sabablari, ayollardagi vahima qo'rquv, kasallik haqidagi noto'g'ri fikrlar natijasida shifokorga murojaaaat qilmaslik va mammolog ko'rigiga tashrif buyurmaslikka olib kelmoqda. Buning natijasida ayollarda jiddiy kasalliklarning avj olib ketishi kuzatilmoqda. So'rovnomadani maqsad ayollarda uchrashi mumkin bo'lgan ko'krak saratoni holatlari to'g'risida ayollar bilimini oshirish, kasallikni erta tashxislash va kasallikni oldini olishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son, 2017 yil 4 apreldagi PQ-2866-son qarorlari.
2. Asqarov. I.R., Olimjonova. G.D.// Ko'krak bezi saratonini davolashda xalq tabobatining o'rni va ahamiyati. Science and innovation, № 3, 220-223, 2022
3. Высоцкая И.В.// Возможности улучшения скрининга рака молочной железы опухоли женский репродуктивной систем. № 4. 2010
4. International Agency for Research on Cancer (IARC; GLOBOCAN-2022).
5. Русин , В.И. , Русин, Е.М. Одошевская , Девиняк О.Т. "Проблемы А.В. скрининга рака молочной железы на примере Закарпатской области", Новости хирургии том 21 * № 5 * 2013
6. Худайкулов Т. К., Худайкулов А.Т., Палванов Т.М. "Осведомленность о раке молочной железы, предупреждающих симптомах и эффективных методах скрининга среди женщин Хорезмской области Узбекистана"// Поволжский онкологический вестник, - Казань,-2015.- № 3. - С.49-55.